



Toshpo'lat

Abdurahmon Akbar

Kuchlilardan kuchli sanar
Toshpo'lat o'zin.
Isbotlamoq bo'lar bizga
Chinligin so'zin.

Yo'l chetida yotgan bo'lsa
Xarsangtosh, g'o'la,
Irg'itadi dast ko'tarib
Uni bir yo'la.

Kafti bilan qoq ikkiga
Bo'ladi g'ishtni.
Jimjiloqda mixni bukib,
Der: "Shu ham ishmi?"



Qoyil qolib hurmatlardik
Biz uni juda.
Bir kun bilib qoldik bari
Ekan behuda.

Bor-yo'g'i qirq daqiqalik
Yo'l edi manzil –
Do'stimizning qilig'idan
Bo'ldik mulzam, zil.

...Avtobusda qaytar edik
Uyimiz tomon.
Qo'l ko'tarib, yo'ldan chiqdi
To'rt-besh otaxon.

Toshpo'latning polvonligi
Ekan yolg'on, puch.
Topolmadi tik turishga
U o'zida kuch.

Bizlar darrov joy bo'shatib,
Desak: "Marhamat!"
Oyna tomon yuzin burib
Oldi Toshpo'lat.



1. She'r kimning nomidan yozilgan?
2. She'rda qanday sifatlar keltirilgan?
3. Toshpo'lat qanday xatti-harakati bilan o'z hurmatini yo'qotdi?
4. Siz Toshpo'latni qanday bola deb hisoblaysiz?
5. She'rdan qanday xulosa chiqarish mumkin?
6. Siz ham shunday vaziyatlarni kuzatganmisiz?



mulzam – uyalib qolmoq
zil – xijolat tortmoq



She'rni ifodali o'qing.

Toshpo'latga berilgan ta'rifni topib o'qing.

She'r voqealarini qismlarga bo'lib, hikoya tarzida so'zlab bering.



She'r voqealarini o'zgartiring. Unda Toshpo'lat xato qilgan xatti-harakatini to'g'rilab yozing.



She'rni ifodali o'qing.

She'r mazmuniga mos maqollar yozing.

Bo'lim yuzasidan takrorlash



1. Bo'limda qanday asarlar bilan tanishdingiz?
2. Bo'limdagi qaysi asar sizda ko'proq taassurot qoldirdi? Nima uchun?



Berilgan gaplar bo'limdagi qaysi asardan olingan?
Quyidagi gaplar qaysi qahramonga tegishli?

1

– Nega jahling chiqadi? Hozir tinib qoladi.
Men xazonlarni doim suvga supurib tashlayman.
Hech narsa qilmaydi, buvim aytgan: “Suv yetti marta dumalasa, toza bo'larkan”.

2

– Bir bola bor ekan. Yiqilib tushib, oyog'i sinibdi. Uni kasalxonaga olib borishibdi, oyog'i tuzalgandan keyin ham doktorlar uni uyiga yuborishmabdi, bola esa erta-yu kech yig'layveribdi.

3

– Gap shundaki, siz ularni yerga ekmaysiz, bir qultum suv bilan yutib yuborasiz. Qanday parvarish qilishni esa qalbingiz o'rgatadi, faqat siz unga quloq solsangiz bo'ldi. Ishni orqaga surmay, hozirdan boshlayvering.

4

– To'g'ri, lekin men ularni qayerga ekishni va qanday parvarish qilishni bilmayman-ku!



5

Gapimga quloq solib,
Gap qaytarmay tura tur.
Bir butun qatlamadan
Yarmini o'zing yebsan.
Nega hech tan olmaysan,
Sira yemadim deysan?



“Shaxmat taxtasi” mashqi. Shifrlangan so‘zlarni toping. Shaxmat doskasidan foydalanib, yashiringan so‘zlarni toping. Ular qaysi mavzularga mos kelishini ayting.

5	u	a	i	v
4	b	r	l	d
3	z	e	ch	s
2	m	n	o'	o
1	t	k	q	h
	A	B	D	E

1. A2, B3, E1, B4, D5,

A4, E2, B2

2. A3, D2, B4, B5, E5, E2, B2

3. E2, A3, E2, E4, B5

4. A2, B5, B4, E4, D4, D5, B1

5. A2, B5, D1, A1, B5, B2,

D3, E2, D1.



Bo'limdan olgan ma'lumotlaringizga tayanib, insoniy fazilatlar haqida hikoya tuzing.